

UDK: 619:636.2:617.3:616

## QORAMOLLARDA YIRINGLI PODADERMATITNI KASALLIGINI DAVOLASH

v.f.n., professor, **Tashtemirov R.M.**

magistrant, **Esanboyeva G.F.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Respublikamiz chorvachiligiga jiddiy ziyon yetkazayotgan qoramollardagi tuyoq kasalligiga xos yiringli pododermatit kasalligini cefur preparati bilan davolash keltirilgan.*

***Kalit soʻzlar:** qoramollar, tuyoq kasalliklari, oqsashlar, yiringli pododermatit, klinik belgilar.*

### Mavzuning dolzarbligi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish” PF-60-son Farmoniga muvofiq [1] 2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi **Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash maqsadida** chorva mollari bosh sonini koʻpaytirish va mahsuldorligini oshirish boʻyicha yangi loyihalarni amalga oshirish koʻzda tutilgan.

Oyoqlarning distal sohasidagi har qanday patologiyada oqsoqlik rivojlanadi. Tinch holatda, qoramol oyoqlarini yon tomonga chiqarib qoʻyadi. Tuyoqni koʻzdan keshirishda tuyoq tovoni va boʻgʻim chegarasida tuyoq shoxining yaxlitligi buzilganligi aniqlanadi. Bunday patologiyalar odatda hayvonlarning holatiga,

mahsuldorligiga ta'sir qiladi, yani organizmdagi har qanday buzilish kabi sut ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi. Qoramollarda barmoq va tuyuq kasalliklari yiringli-nekrotik kasalliklar umumiy sonining 50% tashkil etadi. Bu kasalliklar faqat mahsuldorlikni kamaytirib qoymasdan chorvachilik xo'jaliklariga katta zarar keltiradi, tana vazni kamayadi, yuqori mahsuldor hayvonlarda abortlar uchraydi, shuningdek, profilaktika va davolash uchun ko'p mablag' sariflanadi [1, 3, 4, 2].

### **Tadqiqotlar joyi, obyekti va uslublar**

Ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrasida qoshidagi klinikada, Samarqand viloyati Pstdarg'om tumaniga qarashli «Sattorbobo» fermer xo'jaligidagi qoramollarda o'tkazildi. Bu fermer xo'jaligida jami 86 bosh golshtin-friz va simmental zotli qoramollar bo'lib, shundan 52 ta sigir, 10 ta buqa va 24 ta buzoq bor.

Fermadagi podada oyoq distal qismlari bilan kasallangan qoramollarni tezroq va samarali ajratib olishda takomillashtirilgan "Qoramollarda oqsoqlanish darajasini baholash tizimi" qo'llanildi. Baholashning modifikatsiyalangan uslubi 4 balli tizimdan iborat bo'lib, jiddiy oqsoqlanish darajasi 4 ball bilan baholanadi [5].

Tuyuqchalar distal qismlari kasalliklari bilan ajratib olingan qoramollarning fiziologik ko'rsatkichlari umumiy qabul qilingan usullar yani kuzatish, palpatsiya, auskultatsiya, termometriya, bir daqiqadagi yurak urishi va nafaslar soni orqali o'rganildi va natijalar 1-jadvalda keltirildi.

Fermadagi jami 86 bosh qoramollardan 4 boshi nazorat (2 bosh) va tajriba (2 bosh) guruhlariga ajratildi.

Nazorat guruh hayvonlariga odatiy mexanik ishlov berildi, har ikki kunda bir marta har boshga 1ml/20 kg tirik vazn hisobida oksitetrasiklin 20% 3 marotaba muskul orasiga yuborildi. Og'riq qoldirish va yallig'lanishga qarshi diklofenak 8 ml muskul orasiga ineksiya qilindi. Har kuni kasallangan qoramollarga bir boshga 10 ml C vitamini bir litr 0,9% li natriy xlor eritmasiga aralashtirilib vena qon tomiriga ineksiya qilindi.

Tajribadagi tajriba guruh hayvonlarida deyarli o'xshash davolash ishlari bajarildi, faqat oksitetrasiklin o'rniga cefur antibiotigi kuniga bir marta 1 ml 50 tirik vazn xisobida 3 kun davomida muskulga yuborildi va har kuni bir boshga 10 ml dan Butafan biostimulatori ineksiya qilindi.

Tajriba davomida muntazam ravishda klinik tekshirishlar olib borildi.

### Natijalar va ularning tahlili

Ilmiy tadqiqot ishlarimiz qoramollarda yiringli pododermatit kasalliklarining tarqalishini aniqlash maqsadida jami 86 bosh qoramollar ortopedik ko'rikdan o'tkazilganda, 3 yoshdan 4 yosh oralig'idagi simmental va golshtin zotli 4 bosh qoramollarda yiringli pododermatit (4,65 %) aniqlandi.

Yiringli pododermatit bilan ajratib olingan qoramollardagi klinik ko'rsatkichlar natijalari ko'rsatishicha, 4 bosh qoramollarning hammasida tana harorati o'shgan, yurak urishi va nafas olishi tezlashgan edi (1-jadval).

1-jadval

Tekshirish vaqti	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi		
	Tana harorati	Yurak urish soni	Nafas olish soni	Tana harorati	Yurak urish soni	Nafas olish soni
1-kunida	41,0	84	25	40,0	82	22
4-9 kunida	40,5	82	23	39,5	80	21
10-14-kunida	39,5	81	21	39,0	75	16
15-18-kunida	38,5	77	18	38,0	69	15

Kasallangan qoramollardagi eng asosiy klinik belgi oqsash bo'ldi. Bunda oqsashning avval yengil, 3-5-kunlarida o'rtacha va 7-9-kunlarda sezilarli darajadagi oqsash qayd etildi. Kasallik boshida tuyoqchalarning ilgich qismi va devorlarida qattiq og'riq kelib chiqib, tuyoq devorlari va ayniqsa tuyoq tovoni issiq holatda bo'lib, paypaslanganda va tuyoq qisqichi bilan qisib ko'tarilganda qattiq og'riq sezildi. Tuyoq

aylanasi shishgan va kattalashgan, uning rangi qizg'ish bo'lib, qattiq og'riq kuzatildi. Barmoqlarning umumiy arteriya tomirlarida pul'satsiya kuchaygan.

Yiringli pododermatit bilan kasallangan 4 bosh qoramollarni davolashni boshlashdan avval ular quruq va pana joyga o'tkazildi. Tajribalarni boshlashdan avval guruhlardagi kasallangan qoramollar tuyoqchalariga mexanik ishlov berildi ya'ni ularning tuyoqchalari va barmoqlari iliq suv bilan maxsus cho'tkalar yordamida tozalandi, bunda, ayniqsa, kaft qismiga ko'proq e'tibor qaratildi. Shundan so'ng tuyoqchalar quritilib, 5 % li yod eritmasi bilan ishlandi.

### **Olingan natijalar**

Davolashning 3-kunlarida tajriba guruh hayvonlarida kasallik boshida tuyoqlarning ilgich qismi va devorlarida qattiq og'riq kelib chiqib, tuyoq devorlari va ayniqsa tuyoq tovoni issiq holatda bo'lib, paypaslanganda va tuyoq qisqichi bilan qisib ko'rilganda qattiq og'riq sezildi. Tuyoq aylanasi shishgan va kattalashgan, uning rangi qizg'ish bo'lib, qattiq og'riq kuzatildi, davolashning 6-7-kunlarida ozroq klinik belgilarning ijobiy tomonga siljiganligi qayt etildi.

Tajribaning 8-kunida yallig'lanish jarayonining pasayishi kuzatilib, bunda teri bo'shashib, elastikligining tiklanganligi, barmoq bo'g'imi burmalarining ancha kichiklashganligi aniqlandi. Bu vaqtda oqsash kamayganligi uchun davolash paytida hayvonlar yurgizila boshlandi. Shikastlangan barmoq bo'g'imlarda passiv harakat usullari qo'llanilganda bo'g'im erkin va kam og'riqli ekanligi qayd etildi.

Ushbu guruhdagi barmoq va tuyoqning yiringli yallig'lanishlari bilan kasallangan hayvonlarda davolashning 11-kuniga kelib barmoq va tuyoqning funksiyasi va tuzilishi me'yor darajasiga tiklanganligi qayd etildi.

Nazorat hayvonlarda barmoq va tuyoqning funksiyasi va tuzilishi me'yor darajasiga tiklanganligi tajribaning 17-kuniga kelib qayd etildi.

### **Xulosa**

1. Qoramollarda yiringli pododermatit umumiy poda mollari orasida 4,65 % holatlarda uchradi.

2. Kasallangan tajriba guruhi hayvonlariga kuniga bir marta muskul orasiga cefur antibiotigi (1 ml 50 tirik vazn xisobida) 3 kun davomida va diklofenak muskul orasiga, 20 ml dan Butafan+vitamin C ineksiya qilinganda davolash muddati 11 kun tashkil etib davolash muddati nazorat guruhiga nisbatan 7 kunga qisqarganliga aniqlandi.

3. Nazorat guruhi hayvonlarida davolash muddati 18 kunni tashkil etdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish" PF-60-son Farmoni.
2. Лукъяновский В.А. Биотехнологические закономерности возникновения ортопедических болезней у коров // Ветеринария сельскохозяйственных животных. М.: 2005. -№9. -С.52-57
3. Семёнов Б.С., Стекольников А.А., Высоцкий Д.И. // Ветеринарная хирургия, ортопедия и офтальмология. Москва, Колос, -2003. -С.376
4. Tashtemirov, R. M. Dauletbaev, N.P. (2022). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI AYRIM QORAMOLCHILIK XO'JALIKLARIDA TUYOQ KASALLIKLARINING UCHRASH DARAJASI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 205-207. Hudoyorova F.A., Xamdamov X.A. «Veterinariya meditsinasi» T.: 2020; №5. -B.17 18.